

Uzbekistan Airways “Turizm va sayohat” ko‘rgazmasida

2026 22 Aprel

Uzbekistan Airways Markaziy Osiyoda turizm sohasini rivojlantirish uchun muhim professional platforma bo‘lgan Qozog‘iston xalqaro “Turizm va sayohat” ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda.





22-24-aprel kunlari Olmaota shahrida aviatsiya va turizm sohasi vakillari tajriba almashib, dolzarb tendensiyalarni muhokama qilmoqda hamda hamkorlikning yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda.





Ko'rgazma doirasida aviakompaniya o'z imkoniyatlari, kengayib borayotgan yo'nalishlar tarmog'i va zamonaviy xizmat ko'rsatish yondashuvlarini taqdim etmoqda, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy bozor ishtirokchilari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlamoqda.